YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUN/6-SON, VI-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO‘G‘RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI 12
Abdullayev Azamat Akbar o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА 17
Джуманиязова Сабина Михайловна
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH 22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich
O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR 29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o‘g‘li
Akbarov Diyorbek Ashirali o‘g‘li
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS 32
F. Djalilov
O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH 41
Abdullayev Axror Jaxbarovich
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 47
Махкамова Надира Саидмуратовна
MINTAQA TUMANLARI O‘RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIKLARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) 55
Ergashev Sherali Erali o‘g‘li
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODELDAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O‘TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR) 60
Ergashev Sherali Erali o‘g‘li
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH 65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO‘RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 71
Xalimov Shaxboz Xalimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO‘RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xalimov Shaxboz Xalimovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b. dotsent, i.f.f.d (PhD)
Email: xlimovshaxboz8545@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o‘rni, uning yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi, dinamikasi va tarmoq tuzilmasi tahlil qilingan. So‘nggi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida, jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va xalqaro moliya institutlarining hisobotlariga tayanib, 2020–2025-yillar oralig‘ida xizmatlar sohasining real o‘sish sur’atlari, YaIM tarkibidagi ulushining 45,0 foizdan 49,4 foizgacha o‘sgani, shuningdek, bozor xizmatlarining tarkibiy segmentlari — moliya, savdo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), turizm, mehmonxona-restoran xizmatlari bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining asosiy drayveriga aylanib, 2025-yilda 8,5 foizlik real o‘sishga erishgan va iqtisodiy o‘sishga eng katta hissa qo‘shgan tarmoq sifatida e’tirof etilgan. Maqolada xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha raqamlashtirish, kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy nomutanosiblikni bartaraf etish va eksportga yo‘naltirilgan xizmatlarni rag‘batlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, yalpi ichki mahsulot (YaIM), bozor xizmatlari, iqtisodiy o‘sish, raqamli iqtisodiyot, kichik tadbirkorlik, AKT xizmatlari, mintaqaviy rivojlanish, investitsiyalar, bandlik.

Abstract: This article analyzes the role of the service sector in the economy of the Republic of Uzbekistan, its share in Gross Domestic Product (GDP), development dynamics, and sectoral structure. Based on recent official statistical data, including reports from the National Statistics Committee, the Central Bank, and international financial institutions, the study examines the real growth rates of the service sector between 2020 and 2025, the increase in its share of GDP from 45.0% to 49.4%, as well as the performance of key market service segments such as finance, trade, information and communication technologies (ICT), tourism, and hotel and restaurant services. The findings indicate that the service sector has become a major driver of Uzbekistan’s economic growth, achieving an 8.5% real growth rate in 2025 and making the largest contribution to overall economic development. The article also proposes recommendations for further development of the service sector, including digitalization, support for small businesses, reduction of regional disparities, and promotion of export-oriented services.

Keywords: service sector, gross domestic product (GDP), market services, economic growth, digital economy, small business, ICT services, regional development, investment, employment.

Аннотация: В данной статье анализируются роль сферы услуг в экономике Республики Узбекистан, её доля в валовом внутреннем продукте (ВВП), динамика развития и отраслевая структура. На основе последних официальных статистических данных, включая отчёты Национального комитета по статистике, Центрального банка и международных финансовых институтов, исследованы реальные темпы роста сферы услуг в период 2020–2025 годов, увеличение её доли в структуре ВВП с 45,0% до 49,4%, а также показатели развития основных сегментов рыночных услуг — финансовых услуг, торговли, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), туризма, гостиничных и ресторанных услуг. Результаты исследования показывают, что сфера услуг стала одним из ключевых драйверов экономического роста Узбекистана, достигнув в 2025 году реального роста на уровне 8,5% и обеспечив наибольший вклад в развитие национальной экономики. В статье также разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию сферы услуг, включая цифровизацию, поддержку малого предпринимательства, сокращение региональных диспропорций и стимулирование экспортно-ориентированных услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, валовой внутренний продукт (ВВП), рыночные услуги, экономический рост, цифровая экономика, малый бизнес, ИКТ-услуги, региональное развитие, инвестиции, занятость.

KIRISH

Mustaqillik yillari davomida O‘zbekiston iqtisodiyoti tubdan o‘zgarib, an’anaviy qishloq xo‘jaligi va xomashyo sotuvchi mamlakat tasviridan zamonaviy, xizmatlar va sanoatga asoslangan iqtisodiyot tomon evolyutsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi shunchalik katta bo‘ladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 65–80 foizni tashkil etadi, rivojlanayotgan davlatlarda esa o‘rtacha 45–55 foiz oralig‘ida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 47,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra bu ko‘rsatkich 49,4 foizga yetdi. Bu — xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiy tizimida tobora muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, bozor xizmatlari — moliyaviy xizmatlar, savdo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), transport-logistika, turizm va mehmonxona-restoran xizmatlari — eng yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda [1].

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining hozirgi holatini statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish, uning rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlarini aniqlash, shuningdek, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining iqtisodiy o‘sishdagi roli mavzusi jahon iqtisodiy fanida keng yoritilgan. Kolin Klark va Jin Furas tomonidan ishlab chiqilgan uch sektorli iqtisodiyot nazariyasi (three-sector hypothesis) iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarida resurslarning qishloq xo‘jaligidan sanoatga, so‘ngra xizmatlar sohasiga o‘tishini asoslab bergan. Bu nazariya hozirgacha ko‘plab empirik tadqiqotlarda tasdiqlanmoqda va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarni tushunish uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [2].

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tahlilchilari O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tayyorlagan hisobotlarida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining barqaror rivojlanishi hamda kuchli ichki talab iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillar ekanligi ta’kidlangan. Bunda infratuzilma va mintaqaviy integratsiyani takomillashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlar xizmatlar savdosi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi alohida qayd etilgan [3].

Xususan, ResearchGate platformasida e’lon qilingan “Xizmat ko‘rsatish sohasining aholi turmush darajasi rivojlanishiga ta’siri” mavzusidagi tadqiqotda 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda xizmatlar sektori hajmi 219,9 trillion so‘mdan 818,4 trillion so‘mgacha, ya’ni qariyb 3,7 baravar o‘sgani statistik ma’lumotlar asosida isbotlangan. Mazkur tadqiqotda aloqa-axborot, moliyaviy va yashash-ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori dinamikaga ega ekanligi, shuningdek, xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi va bandlikka qo‘shgan hissasi ortib borishi farovonlik va ijtimoiy infratuzilma sifatini oshirishda barqaror drayverga aylanganligi ta’kidlangan [4].

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining professor-o‘qituvchilari tomonidan “Aktuar, moliya va buxgalteriya hisobi” ilmiy jurnalida e’lon qilingan tadqiqotlarda xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, jumladan, bandlik barqarorligi, o‘rtacha ish haqi darajasi, malaka oshirish dasturlari va ijtimoiy himoya qamrovi kabi parametrlar bo‘yicha keng qamrovli tahlillar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda xizmatlar sohasidagi xodimlarning moliyaviy barqarorligi va malaka darajasini oshirish iqtisodiy o‘sish sifatini ta’minlashning muhim sharti sifatida ko‘rsatilgan [5].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi mintaqalar o‘rtasidagi nomutanosiblik, raqamli xizmatlarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi va kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar bozoridagi ulushini oshirish masalalari yetarlicha chuqur o‘rganilmagan bo‘shliqlar sifatida qoladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo‘shliqni so‘nggi statistik ma’lumotlar asosida to‘ldirishga harakat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar, tizimli yondashuv va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida 2020–2025-yillarda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi va rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali moliya, savdo, AKT, transport va turizm xizmatlarining o‘sish sur’atlari taqqoslandi. Dinamik qatorlar metodi asosida xizmatlar hajmidagi o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi. Tizimli yondashuv xizmatlar sohasining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligini baholashga xizmat qildi. Kontent-tahlil yordamida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va rasmiy hisobotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil davomida xizmatlar sohasining YaIM tarkibidagi ulushi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2023-yilda 46,2 foizni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich 2024-yilda 47,4 foizga, 2025-yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra esa 49,4 foizga yetdi. Quyidagi 1-jadvalda 2021–2025-yillar oralig‘ida YaIM tarkibidagi asosiy tarmoqlarning ulushi keltirilgan (1-jadval) [6].

1-jadval. O‘zbekiston YaIM tarkibida asosiy tarmoqlarning ulushi[1]

Tarmoq	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar sohasi	45,0	45,8	46,2	47,4
Sanoat	24,5	24,9	25,3	26,4
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	23,8	22,5	21,2	19,2
Qurilish	6,7	6,8	7,3	7,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021–2024-yillar mobaynida xizmatlar sohasining ulushi 45,0 foizdan 47,4 foizga, ya’ni 2,4 foiz punktga oshgan, shu bilan birga qishloq xo‘jaligining ulushi 23,8 foizdan 19,2 foizga, ya’ni 4,6 foiz punktga kamaygan. Bu — iqtisodiyotning klassik tarkibiy o‘zgarish (structural transformation) bosqichidan o‘tayotganidan dalolat beradi, bunda resurslar nisbatan past unumdorlikka ega tarmoqlardan yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlar sektoriga oqib o‘tmoqda.

2024-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 1,45 kvadrillion so‘mni (taxminan 115 milliard AQSh dollari) tashkil etib, real o‘sish sur’ati 6,5 foizni tashkil etdi. Shu yilda xizmatlar sohasi hajmi 7,7 foizga o‘sgan. 2025-yilda esa iqtisodiy o‘sish 7,7 foizga (ba’zi prognozlarda 6,6 foiz) yetib, YaIM hajmi joriy narxlarda 1 kvadrillion 849,65 trillion so‘mga, dollar ekvivalentida esa taxminan 147 milliard AQSh dollariga yetdi. Eng muhimi, 2025-yilda xizmatlar sohasi 8,5 foizlik real o‘sishni ta’minlab, sanoat (6,8 foiz) bilan birgalikda umumiy iqtisodiy o‘sishning 5,6 foiz punktini ta’minladi — bu iqtisodiy o‘sishning yarmidan ko‘pini tashkil etadi (2-jadval) [7].

2-jadval.
YaIM va xizmatlar sohasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[2]

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil
YaIM hajmi (joriy narxlarda, trln so‘m)	1 454,0	1 849,65
YaIM, dollar ekvivalentida (mlrd AQSh dollari)	~115,0	~147,0
YaIM real o‘sish sur’ati, %	6,5	7,7
Xizmatlar sohasining real o‘sish sur’ati, %	7,7	8,5
Sanoat o‘sish sur’ati, %	6,8	6,8
Qurilish o‘sish sur’ati, %	8,8	14,0
Qishloq xo‘jaligi o‘sish sur’ati, %	3,1	4,4
Aholi jon boshiga YaIM (mln so‘m)	39,1	48,37
Inflyatsiya darajasi, %	9,8	7,3

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xizmatlar sohasining o‘sish sur’ati ikki yil davomida ham YaIM umumiy o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lgan (2024-yilda 7,7 % ga 6,5 %, 2025-yilda 8,5 % ga 7,7 %), bu sohaning iqtisodiy o‘sishdagi yetakchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bozor xizmatlari — xizmatlar sohasining tarkibiy qismi bo‘lib, u tijorat asosida ko‘rsatiladigan xizmatlarni o‘z ichiga oladi. 2025-yilda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14,7 foizga o‘sib, 1,05 kvadrillion so‘mni tashkil etdi (2024-yilda o‘sish 12,9 foiz bo‘lgan edi). Bozor xizmatlari tarkibidagi segmentlarning 2025-yildagi o‘sish sur’atlari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval) [8].

1 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.

3-jadval.
Bozor xizmatlari segmentlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari[3]

Xizmat turi	2024-yil	2025-yil
Moliyaviy xizmatlar	20,6	24,6
Aloqa va axborot texnologiyalari (AKT)	25,8	22,7
Transport xizmatlari	—	10,8
Savdo xizmatlari	11,8	13,8
Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari	10,6	10,4
Bozor xizmatlari, jami	12,9	14,7

Jadvaldan ko‘rinadiki, moliyaviy xizmatlar va aloqa-axborot texnologiyalari segmentlari ikki yil davomida eng yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolgan — bu raqamli bank xizmatlari, mobil to‘lov tizimlari va IT sektorning jadal kengayishi bilan bog‘liq. 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida axborotlashtirish sohasida raqamli xizmatlar tarkibida ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish xizmatlari, veb-portallar, shuningdek, dasturiy ta’minot ishlab chiqarish (taxminan 6,2 foiz) va kompyuter-aloqa uskunalarini ta’mirlash xizmatlari (3,2 foiz) muhim ulushni tashkil etdi [9].

Kichik tadbirkorlik subyektlari xizmatlar sohasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra kichik biznesning YaIMdagi ulushi 51,2 foizdan 54,3 foizgacha o‘sgan. 2025-yilning yanvar–sentabr oylari yakunlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 638 221,7 mlrd so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yaratilgan, bu iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning 51,5 foizini tashkil etadi. Shu jumladan, kichik biznes tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatning 43,3 foizi aynan xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelgan.

Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotga ko‘ra, 2024-yilning birinchi yarmida hududlarda jami 26,5 ming yangi savdo va xizmat ko‘rsatish obyekti ishga tushirilishi natijasida 61,1 ming yangi ish o‘rni yaratildi. Ushbu yangi ish o‘rinlarining tarkibi quyidagi 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval) [10].

4-jadval.
2024-yil I yarim yillikda yangi ochilgan xizmat ko‘rsatish obyektlari va ish o‘rinlari[4]

Soha	**Obyektlar soni (ming)**	**Ulush, %**
Chakana savdo	11,1	41,9
Boshqa xizmat turlari	7,3	27,5
Maishiy xizmat	3,2	12,1
Umumiy ovqatlanish	2,1	7,9
Ta’lim	1,4	5,3
Tibbiyot	0,423	1,6
Turizm	0,406	1,5
Qishloq xo‘jaligi (xizmat ko‘rsatish)	0,394	1,5
Jami	26,5	100,0

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasidagi yangi ish o‘rinlarining katta qismi (41,9 foizi) chakana savdo tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda, bu esa savdo infratuzilmasining jadal kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tibbiyot, turizm va ta’lim kabi yuqori malaka talab qiluvchi sohalardagi yangi obyektlar ulushi nisbatan past (jami 8,4 foiz) bo‘lib, bu sohalarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yilgi yillik hisobotiga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmi yakuni bo‘yicha ish bilan band aholi soni 13,9 million kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,7 foizga o‘sgan. Shu davrda sanoat va transport sohalarida bandlar soni qisqarganiga qaramay, qurilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sektorlarida ishchilar soni sezilarli darajada oshgan. 2024-yilning yanvar–iyul oylarida

3 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
4 Manba: Muallif ishlanmasi.

esa kambag‘allikni qisqartirish dasturlari doirasida xizmat ko‘rsatish sohasida 1 million 274 ming nafar aholi (rejaning 130 foizi) ish bilan ta’minlangan, bu qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi 1 million 532 ming nafardan keyingi ikkinchi yirik ko‘rsatkich hisoblanadi [11].

Ish haqi dinamikasi bo‘yicha 2023-yilda iqtisodiyotdagi o‘rtacha hisoblangan nominal ish haqi 4,6 million so‘mni tashkil etib, yillik hisobda 17 foizga oshgan. Bunda eng yuqori o‘sish sur’atlari aynan xizmatlar sohasiga tegishli tarmoqlarda qayd etilgan: axborot va aloqa sohasida +40 foiz, tashish va saqlashda +37 foiz, savdoda +26 foiz va moliya sohasida +23 foiz. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi 5-jadvalda umumlashtirilgan (5-jadval).

5-jadval.

Xizmatlar sohasi tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha nominal ish haqining yillik o‘sishi[5]

Tarmoq	Ish haqi o‘sishi, %
Axborot va aloqa	+40
Tashish va saqlash	+37
Savdo	+26
Moliya	+23
Iqtisodiyot bo‘yicha o‘rtacha	+17

Ko‘rinib turibdiki, xizmatlar sohasiga tegishli barcha to‘rt tarmoqda ish haqi o‘sishi iqtisodiyot bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (17 foiz) yuqori bo‘lgan, bu esa ushbu sohalarda malakali ishchi kuchiga talab yuqori bo‘lib, raqobatbardosh ish haqi shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Milliy statistika qo‘mitasining hududlar kesimidagi tahlillariga ko‘ra, xizmatlar sohasi rivojlanishi mintaqalar bo‘yicha bir xil emas. Toshkent shahri va Toshkent viloyati, shuningdek, yirik sanoat markazlari (Samarqand, Buxoro, Andijon) xizmatlar hajmi bo‘yicha yetakchilik qilmoqda, bunda 2025-yil yanvar–fevral oylarida xizmatlar hajmi o‘sish sur’ati 112,2 foizni tashkil etib, umumiy hajm 26 451,9 mlrd so‘mga yetgan (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash natijalarini hisobga olgan holda).

Shuningdek, kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyot tarkibida ham xizmatlar sohasining salmog‘i yuqori. 2025-yilning yanvar–sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati 433 679,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, uning tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 36,2 foizni tashkil etadi (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 69,4 foiz, qurilish — 35,0 foiz va sanoat — 10,2 foiz bilan solishtirganda). Bu ko‘rsatkich xizmatlar sohasida norasmiy faoliyatning ham sezilarli darajada mavjudligini, demak, rasmiylashtirish bo‘yicha katta zaxiraning saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi [12].

2024-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 3,8 foizga oshib, 66 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 27,6 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2025-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar 10,5 foizga o‘sib, 591,1 trillion so‘mga (591 trln 141 mlrd so‘m) yetdi. Markazlashtirilmagan (xususiy) investitsiyalar ulushi 2023-yildagi 86,0 foizdan 2024-yilda 89,5 foizgacha o‘sgan, bu xususiy sektorning, jumladan, xizmatlar sohasidagi investitsiya faolligining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan barcha ma’lumotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi nafaqat YaIM tarkibida eng katta ulushga ega tarmoqqa aylanmoqda, balki iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri, eng yuqori ish haqi o‘sishi kuzatilayotgan va kichik tadbirkorlik uchun eng katta imkoniyatlar maydoni bo‘lgan tarmoq sifatida shakllanmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga asoslanib, O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

Raqamli infratuzilmani kengaytirish va AKT xizmatlarini rag‘batlantirish. 2025-yilda AKT xizmatlari 22,7 foizga o‘sgan bo‘lib, bu yuqori sur’atni saqlab qolish uchun keng polosali internet tarmog‘ini barcha hududlarga yetkazish, IT-parklar sonini ko‘paytirish va dasturiy ta’minot eksportini rag‘batlantirish zarur.

Moliyaviy xizmatlar sektorini rivojlantirish. Moliyaviy xizmatlar 2025-yilda 24,6 foizlik eng yuqori o‘sishni ko‘rsatdi; raqamli bank xizmatlari, mikromoliyalashtirish va sug‘urta bozorini kengaytirish orqali bu dinamikani mustahkamlash mumkin.

Mintaqaviy nomutanosizlikni bartaraf etish. Toshkent va yirik shaharlardan tashqari hududlarda xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish uchun mintaqaviy investitsiya dasturlarini kuchaytirish, chekka hududlarda xizmat ko‘rsatish obyektlarini ochishga soliq imtiyozlari berish.

5 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari.

Turizm va mehmonxona-restoran xizmatlarini diversifikatsiya qilish. Yangi ochilgan xizmat ko‘rsatish obyektlari orasida turizm ulushi atigi 1,5 foizni tashkil etadi; ekoturizm, madaniy turizm va “xalq turizmi” (homestay) yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali bu salohiyatdan to‘liqroq foydalanish mumkin.

Norasmiy iqtisodiyotni rasmiylashtirish. Xizmatlar sohasidagi kuzatilmaydigan faoliyat ulushi 36,2 foizni tashkil etadi; soliq tizimini soddalashtirish, raqamli to‘lov tizimlarini kengaytirish va kichik biznes uchun ro‘yxatdan o‘tish jarayonlarini yengillashtirish orqali bu ko‘rsatkichni kamaytirish mumkin.

Yuqori malaka talab qiluvchi xizmatlarni kengaytirish. Tibbiyot va ta’lim sohalaridagi yangi obyektlar ulushi jami 6,9 foizni tashkil etadi; xususiy tibbiyot va ta’lim muassasalarini ochishga davlat-xususiy sherikligi (PPP) mexanizmlari orqali ko‘maklashish.

Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xizmatlar sohasida ish haqining yuqori sur’atlarda o‘sishi (23–40 foiz) malakali kadrlarga talabning ortib borayotganidan dalolat beradi; kasb-hunar ta’limi tizimini xizmatlar sohasi ehtiyojlariga moslashtirish, raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi so‘nggi yillarda barqaror va jadal o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. 2021–2025-yillar oralig‘ida xizmatlar sohasining YaIM tarkibidagi ulushi 45,0 foizdan 49,4 foizgacha o‘sgan, bu sohaning iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylanib borayotganini tasdiqlaydi. 2025-yilda xizmatlar sohasi 8,5 foizlik real o‘sishni ta’minlab, sanoat bilan birgalikda umumiy iqtisodiy o‘sishning yarmidan ko‘pini (5,6 foiz punkt) shakllantirdi.

Bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlar (2025-yilda +24,6 %) va aloqa-axborot texnologiyalari (+22,7 %) eng yuqori o‘sish sur’atlarini ko‘rsatib, raqamli iqtisodiyotning xizmatlar sohasi rivojiga ta’siri tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Kichik tadbirkorlik subyektlari xizmatlar sohasidagi qo‘shilgan qiymatning 43,3 foizini yaratib, ushbu sohaning rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, ish haqi dinamikasi tahlili xizmatlar sohasiga tegishli tarmoqlarda (axborot-aloqa, transport, savdo, moliya) ish haqi o‘sishi iqtisodiyot bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan sezilarli yuqori bo‘lganini ko‘rsatdi, bu malakali kadrlarga talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, moliyaviy xizmatlar va AKT sektorini rag‘batlantirish, mintaqaviy nomutanosizlikni bartaraf etish, turizm va yuqori malaka talab qiluvchi xizmatlarni diversifikatsiya qilish, norasmiy iqtisodiyotni rasmiylashtirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu choralar O‘zbekistonning 2030-yilgacha YaIM hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish bo‘yicha strategik maqsadiga erishishda xizmatlar sohasining hissasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, *“YaIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining 2025-yil yanvar–sentabr oylari bo‘yicha tahlili”*. Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, *“O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari, 2025-yil yanvar–fevral”*. Toshkent, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *2023-yil yillik hisobot*. Toshkent, O‘zbekiston: Markaziy bank, 2024.
4. *“O‘zbekiston YaIMi 2024-yilda 1,45 kvadrillion so‘mga yetdi. U nimalardan iborat?”*, Gazeta.uz, 2025-yil 7-fevral.
5. *“2024-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti qariyb 115 mlrd dollarga yetdi”*, Kun.uz, 2025-yil 8-fevral.
6. V. A. O‘g‘li Fozilov, *“Xizmatlar sohasini rivojlantirish – iqtisodiy o‘sish va bandlikning muhim omili”*, JMBM, № 12, 2025.
7. A. O. Ochilov va A. A. Xudoyorov, *“Xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari”*, *Innovatsion iqtisodiyot*, 2-jild, 3-son, 51–56-betlar, 2024.
8. B. O. Namozova va Y. P. Urunbayeva, *“Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida xizmatlar sektorining roli”*, *Journal*, 66-jild, 2-son, 348–353-betlar, 2026-yil aprel.
9. M. Muxammedov, *Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari*. Samarqand, O‘zbekiston: Zarafshon, 2017.
10. Y. P. Urunbayeva, *Xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi turmush darajasi*. Toshkent, O‘zbekiston: Fan, 2013.
11. K. E. Shonazarov, *“Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotda tutgan o‘rni”*, *Journal of Economy, Tourism and Service*, 3-jild, 5-son, 48–53-betlar, 2024.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz